

Viloyat ishchi guruhi So'x tumanida



Viloyat ishchi guruhi So'x tumanida

Ayni damda tumanimizda bo'lib turgan Farg'ona viloyati hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinbosari Isaqov Xojiqo'zjon boshchiligidagi ishchi guruh tuman hududlarida bo'lib, amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlar jarayonini ko'zdan kechirmoqda. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, yo'l masalalari, suv ta'minoti, "Obod qishloq" dasturining ijrosi, amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlari ishchi guruh tomonidan o'rganilib, bajarilayotgan ishlarning sifati ko'zdan kechirilmoqda.

Tumanning Qal'acha mahallasida "Obod qishloq" dasturi asosida amalga oshirilayotgan ishlar, 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi va 3-sonli IDUMdagi ta'mirlash ishlari, mahallada barpo etilayotgan yangi tibbiyot maskandagi ishlar jarayonini ko'zdan kechirgan viloyat hokimi o'rinbosari ishlarni sifatli etib bajarilishi bo'yicha mutasaddilarni qattiq ogohlantirib, bajarilayotgan ishlarda mas'uliyatni to'liq his etgan holda faoliyat yuritish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Mahalla hududidagi elektr energiyasi, gaz ta'minoti, ichimlik suvi ta'minotiga doir ishlar ham viloyat boshqarma boshliqlari ishtirokida muhokama etildi. Eslatib o'tamiz, bugun Qal'acha mahallasida "Obod qishloq" dasturi asosida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalla hududida Javpaya massivini sug'orish uchun qurilayotgan nasos stantsiyasidagi ishlar jarayoni ham o'rganildi.

Tul mahallasidagi 19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida ham ayni kunda rekonstruktsiya ishlari amalga oshirilmoqda. Quruvchi tashkilot mutasaddilari bilan bo'lib o'tgan so'hbat jarayonida viloyat prokurori o'rinbosari tomonidan har bir bajarilayotgan ish nazoratga olinishini qayd etgan viloyat hokimi o'rinbosari sohadagi korruptsion holatlarga barham berish, zimmasiga yuklangan vazifaga befarqlik bilan qarash kabi illatlarga ham tegishli choralar ko'rilishini ta'kidladi.

Bajarilayotgan rekonstruktsiya ishlaridan eng avvalo sifat talab etilishi ta'kidlandi. Quruvchi tashkilot mutasaddilariga yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tezda bartaraf etish yuzasidan qattiq topshiriq berildi.

Devayron mahallasida qurilgan ko'p qavtli uy-joylardagi bugungi ishlar jarayoni ham ishchi guruh tomonidan o'rganildi. Yangi uylarni gaz, suv va elektr bilan ta'minlash masalasi jarayoni ham soha

vakillari bilan muhokama etildi. Moliyalashtirish ishlarning ahvoli ham o'rganildi.

Ishchi guruh vakillari kunning ikkinchi yarmida ham o'z faoliyatini davom ettiradi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-02 16:41:21